
TOSHLOQLIK HOJILAR HAJ SAFARIDAN QAYTDILAR

Muqaddas amalni bajarib ona yurtga yorug' yuz va yuksak maqom bilan qaytgan hojilarimizni kutib olish marosimi Toshloq tumanida ham munosib tashkil etildi.

Bugun tuman hokimligi, tuman faollari va boshqa bir qancha kutib oluvchilar ishtirokida jami 54 nafar ziyoratchilarimiz tuman markazida kutib olindi.

Hojilarning ko'zlaridagi quvonch yoshlari muqaddas makonlarda jonajon yurtimizdan borgan ziyoratchilarga nechog'lik ulug' sharoitlar yaratilganini ko'rsatib turibdi. Ziyoratchilarimiz mamlakatimiz rahbariyatiga o'z minnatdorchiliklarini bildirib, ularning haqlariga muqaddas ziyoratgohda ko'plab duolar qilganlarini mamnuniyat bilan izhor etishdi.

2023-07-13 15:31:50